



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOG'-KON SANOATI VA GEOLOGIYA VAZIRLIGI

BUYRUQ

2025-yil "03" 01

1 - son

Toshkent shahri

**Davlat xaridlariga oid hujjatlarni
tasdiqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-son Qonuniga muvofiq Vazirlikda tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida,

BUYURAMAN:

1. Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining xaridlarga oid ichki me'yoriy hujjatlari quyidagi ilovalarga muvofiq tasdiqlansin:

Davlat xaridlari doirasida eng yaxshi takliflarni tanlash va tender orqali amalga oshirish bo'yicha xarid komissiyasining tarkibi 1-ilovaga;

Takliflarning texnik qismini ko'rib chiqish va xulosalarni rasmiylashtirish uchun tegishli yo'nalishlar bo'yicha ishchi guruhlar tarkibi 2-ilovaga;

Davlat xaridlari bo'yicha marketing tahlil qilish tartibi 3-ilovaga;

Tovar moddiy boyliklarni topshirish - qabul qilish dalolatnomasi shakli, 4-ilovaga;

Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizam 5-ilovaga;

Davlat xaridlari ochiq va shaffof amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha xarid komissiyasi to'g'risidagi nizam 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Davlat geologiya qo'mitasining 2023 yil 16 iyundagi 54-sonli buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

3. Ushbu buyruqning bajarilishi nazorat qilish vazir o'rinbosari A.Kadixodjaev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir

B. Islamov

O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon
sanoati va geologiya vazirligining 2025
yil "03" 01 dagi
7 - son buyrug'iga
1-ILOVA

**Davlat xaridlarini eng yaxshi takliflarni tanlash va tender orqali
amalga oshirish bo'yicha xarid komissiyasi
TARKIBI**

№	F.I.SH.	Lavozimi
Komissiya raisi		
1.	Kadixodjaev A.A.	O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirining o'rinbosari
Komissiya raisining o'rinbosari		
2.	Saidov Z.Z.	Vazir kotibiyati boshlig'i
Komissiya a'zolari:		
3.	Xodjamov Y.N.	Geologiya moliyalashtirish va texnik siyosat boshqarmasi boshlig'i
4.	Xaybulin T. R.	Buxgalteriya hisobi bo'limi boshlig'i
5.	Alimov M.	Xalqaro hamkorlik, reytinglar va investitsiya boshqarmasi boshlig'i
6.	Sodikov A. D.	Ichki audit bo'yicha bo'limi boshlig'i
7.	Magdiyev F.N.	Geologiya ishlarni texnik muvofiqdastirish bo'limi boshlig'i
8.	Xalikulov D. M.	Ishlarni boshqarish bo'limi boshlig'i
9.	Ne'matov M.I.	Davlat xaridlari bo'yicha bosh mutaxassis
Komissiya kotibi		
10.	Djurayev F.Z.	Birinchi toifali xaridlar bo'yicha agent

Izoh: *Komissiya a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

** Eng yaxshi takliflarni tanlash birinchi yetti nafar xarid komissiyasi a'zolaridan shakllantiriladi.

*** Tender o'tkazish yetti nafar xarid komissiyasi a'zolaridan shakllantiriladi.

Takliflarning texnik qismini ko'rib chiqish va xulosalarni rasmiylashtirish uchun tegishli yo'nalishlar bo'yicha ishchi guruhlar TARKIBI

T/r	F.I.Sh.	Ishchi guruh a'zolari lavozimi
Kon-burg'ilash, energetika, texnologik va yordamchi uskunalar, avtotransport vositalari va yo'l qurilish texnikasi bo'yicha ishchi guruhlar a'zolari		
1.	Jabbarov D.N.	Geologiya ishlarini texnik muvofiqlashtirish bo'yilimi bosh mutaxassisi
2.	Nazarov E.A.	Geologiya ishlarini texnik muvofiqlashtirish bo'yilimi bosh mutaxassisi
Laboratoriya uskunalari va dasturiy ta'minot bo'yicha ishchi guruhlar a'zolari		
4.	Sobirov X.S.	Markaziy laboratoriya "Tajriba uslubiy tadqiqotlar" laboratoriya boshlig'i
5.	Movlanov J.J.	Geoinnovatsion texnologiyalar markazi direktori
6.	Tashkanbaev O.N.	Markaziy laboratoriya boshlig'i
Uglevodород va geofizik va ilmiy-tadqiqot uskunalari bo'yicha ishchi guruhlar a'zosi		
7.	Toshqulov A.D.	Neft gaz geologiyasi bo'limi boshlig'i
Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini va raqamlashtirish bo'yicha ishchi guruhlar a'zosi		
8.	Isaev N.B.	AKTni joriy etash va raqamlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi
9.	Baratov A.X.	AKTni joriy etash va raqamlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi
Xorijiy konsultant va ekspertlar jalb etish bo'yicha ishchi guruhlar a'zosi		
11.	Mahammadiev E.M.	Mineral xomashyo bazasini rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i
12.	Tilabov S.A.	Xalqaro hamkorlik va investitsiyalarni jalb qilish bo'limi boshlig'i

Izoh: *Ishchi guruh a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

**Ishchi guruh a'zolari xaridlarining predmetidan kelib chiqqan holda, o'z faoliyatini amalga oshirish uchun tizim korxonalarini mutaxassislarini ekspert sifatida jalb etish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligini Marketing tahlil qilish tartibi

T/r	Yetkazib beruvchi nomi	Taklif narxi (OQSiz/QOS bilan)	Takliflarning o'rtacha qiymatining foizi	Taqoslash qarori	Yetkazib berish shartlari****	To'lov shartlari****	Tijorat taklifining umumiy miqdori, shartli birliklarda
1	A*	1 000 000,00	74,63	qabul qilish			1 000 000,00
2	B*	1 150 000,00	85,82	qabul qilish			1 150 000,00
3	V*	1 250 000,00	93,28	qabul qilish			1 250 000,00
4	G*	1 500 000,00	111,94	qabul qilish			1 500 000,00
5	D*	1 800 000,00	134,33	rad qilish			
6	---	---	---				
7**	---	---	---				
JAMI:		1 340 000,00	4 ta tijorat taklifi				1 225 000,00

Marketing tahlil natijalariga ko'ra (D yetkazib beruvchining tijorat taklifi rad etilganidan keyin) ushbu mahsulotning o'rtacha bozor narxi **1 225 000,00** sum tashkil etadi. Xaridni amalga oshirish turi: _____ Lot raqami: _____

Ijrochi:

Davlat xaridlari bo'limi

imzo

F.I.Sh

Vazir kotibiyati	Kelishildi:	imzo	F.I.Sh
Buxgalteriya hisobi bo'limi		imzo	F.I.Sh
Geologiyani moliyalashtirish va texnik siyosat boshqarmasi		imzo	F.I.Sh
Ichki audit bo'limi		imzo	F.I.Sh
Tovar yoki xizmatga mas'ul bo'lim		imzo	F.I.Sh

Izoh:

* - tijorat takliflari, narsa-nusxalar, shartnomalar va boshqalar.

varaqalarga birlashtirilgan.

** - o'rtacha narxni aniqlash uchun kamida 3 ta tijorat taklifi bo'lish kerak.

*** - o'rtacha narxni oltin hisoblash masqadida 30% dan ko'proq yoki past foizli tijorat takliflaridan foydalanilmaydi.

**** - agar yetkazib beruvchilar yetkazib berish va to'lov shartlari bir-biridan tubdan farq qilsa, ularni tijorat takliflariga ham boshqalarda bo'lgan ushbu taklif sur'asiga qo'shib bir xil meyorlarga keltirish kerak (yetkazib berish va to'lov shartlari, shuningdek to'lov va'yatasi)

2025 yil 14 martdagi № _____ shartnoma bo'yicha	
Tovar moddiy boyliklarni topshirish - qabul qilish dalolatnomasi	
2025 yil _____	2025 yil mart
№ _____	№ _____
" MChJ/	
2025 yildagi _____	2025 yildagi _____
son _____	son _____
Xisob faktura	

№	Nomi	O'lchov birligi	Hajjat bo'yicha (miqdor)	Haqiqiy (miqdor)	Narsd	QQSiz yetkazib berish narxi	QQS		so'm
							Stavka		
1	JAMI:	donat							0,00
1. Ushbu qabul qilish akti " _____ " MChJ tomonidan topshirganligini va "Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi" _____ sonli shartnoma shartlariga muvofiq (miqdor, to'plamda) qabul qilindi.									
2. Tomonlar qabul qilish va topshirish paytida tovar moddiy boyliklarni birgalikda tekshirdilar va 2025 yil _____ martdagi _____ sonli shartnoma talablari va shartlariga (texnik) to'liq mos kelishi to'g'risida kelishuvga erishdilar.									
Topshirdi:									
Lavozimi	Imzo	F.I.Sh	Qabul qildi:			Imzo	F.I.Sh		
			Busgateriya hisobi bo'limi			Imzo	F.I.Sh		
			Mas'ul tuzilma xodimi			Imzo	F.I.Sh		
			Xo'jalik mudiri			Imzo	F.I.Sh		

Izoh:

* - ishonchnoma va xisob fakturasu _____ varaqalarga birlashtirilgan;
** - tovar moddiy boylik predmetidan kelib chiqib muassaslarini ekspert sifatida jalb etish mumkin

Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-son Qonuniga (keyingi o'rinlarda - Qonun), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 sentabrdagi PQ-3953-sonli "O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 21 avgustdagi PQ-4812-sonli "Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori muvofiq O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligida (keyingi o'rinlarda - Kon-geologiya vazirligi) xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibini eng yaxshi takliflarni tanlash (keyingi o'rinlarda tanlash) va tender orqali o'tkazilishini belgilaydi.

2. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

avans to'lovi – qonunchilikda belgilangan tartibda Kon-geologiya vazirligi va xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi tomonidan kiritiladigan, davlat xaridlarining elektron tizimi operatorining vositachilik yig'imini va tomonlarning zakalatini o'z ichiga olgan moliyaviy mablag'lar summasi;

vakolatli organ – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi;

vositachilik yig'imi – davlat xaridlarining elektron tizimi operatorining xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish bilan bog'liq xizmatlari uchun undiriladigan yig'im;

zakalat – Kon-geologiya vazirligi tomonidan elektron do'kon yoki boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion natijasida tuzilgan shartnoma bo'yicha to'lovlar to'liq hajmda amalga oshirilishini ta'minlash hamda xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari tomonidan o'zlarining takliflarini ta'minlash usuli;

davlat buyurtmachi – Kon-geologiya vazirligi (Budjet buyurtmachi);

Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha komissiya – vakolatli organ tomonidan shikoyatlarni adolatli, tezkor va samarali ko'rib chiqish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan davlat organlari, davlat xaridlari elektron tizimining operatorlari va jamoatchilik vakillaridan iborat tarkibda tuziladigan komissiya;

davlat xaridlarining reja-jadvali – Kon-geologiya vazirligi tomonidan yil va chorak davomida xarid qilinishi rejalashtirilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) to'g'risidagi ma'lumotlarni nazarda tutuvchi hujjat;

davlat xaridlarining elektron tizimi – elektron davlat xaridlari jarayonidagi xarid qilish tartib-taomillarini o'tkazishda davlat xaridlarining sub'ektlari hamkorligini ta'minlaydigan tashkiliy, axborotga oid va texnik yechimlarning dasturiy majmui;

davlat xaridlari elektron tizimining operatori (keyingi o'rinlarda – operator) – davlat xaridlarining sub'ektlariga davlat xaridlarining elektron tizimlarida xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatadigan, vakolatli organ tomonidan belgilanadigan maxsus vakolatli yuridik shaxs;

lot – turli belgilari bo'yicha guruhlashtirilgan (foydalanish, texnik va funksional xususiyatlariga ko'ra) bir xil turdagi tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) jamlanmasi sifatida

Kon-geologiya vazirligi tomonidan belgilangan va alohida davlat xaridlari to'g'risidagi shartnoma bo'yicha xarid predmeti hisobalandigan miqdoriy qism;

shaxsiy kabinet – elektron davlat xaridlarida ishtirok etishni hamda zarur axborotni joylashtirishni va undan foydalanishni ta'minlaydigan, davlat xaridlari sub'ektlari, xarid komissiyasining mas'ul kotibi, xarid qilish tartib-taomillarining davlat nazoratini amalga oshiruvchi davlat organlarining maxsus axborot portalidagi va (yoki) davlat xaridlarining elektron tizimidagi individual sahifasi;

elektron taklif – eng yaxshi takliflarni tanlash va tender tartib-taomilida qatnashish uchun xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi o'z shaxsiy kabineti orqali elektron ko'rinishda yuboradigan taklif;

qadam o'lehoivi – boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auktsionning boshlang'ich va/yoki o'zidan oldingi xarid qilish tartib-taomili ishtirokchisining narxini pasaytirishning foiz ko'rinishida belgilanadigan intervali;

hisob-kitob-kliring palatasi (keyingi o'rinlarda - HKKP) – avans to'lovlarini deponentlash va ularni hisobga olish yo'li bilan davlat xaridlari to'g'risidagi shartnomalar bo'yicha majburiyatlarni bajara oladigan xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari elektron davlat xaridlariga kirishini ta'minlovchi davlat xaridlari elektron tizimining tarkibiy bo'linmasi.

3. Budget buyurtmachi hadli kelishuv tartib-taomili orqali davlat xaridlarini amalga oshira olmaydi.

4. Kon-geologiya vazirligining davlat xaridlariga tayyorgarligi quyidagilarni o'z ichiga oladi: maxsus axborot portalida davlat xaridlarining reja-jadvallarini joylashtirish;

qonunchilik hujjatlarida belgilangan hollarda elektron davlat xaridlarida ishtirok etish uchun avans to'lovlarini kiritish;

davlat xaridlarining elektron tizimiga davlat xaridlari o'tkazilishi haqidagi e'lonlarni joylashtirish;

maxsus axborot portalida Kon-geologiya vazirligi o'zi bilan affillangan shaxslar haqidagi ma'lumotlarni joylashtirish.

5. Davlat xaridlarining yillik va choraklik reja-jadvallarini maxsus axborot portalida joylashtirish tartibi va muddatlari:

Kelgusi yil uchun davlat xaridlarining yillik reja-jadvallari joriy yilning 25 martiga qadar maxsus axborot portalida joylashtiriladi.

Kelgusi chorak uchun davlat xaridlarining choraklik reja-jadvallari Kon-geologiya vazirligi tomonidan joriy chorak oxirgi oyining 25 sanasiga qadar maxsus axborot portalida joylashtiriladi.

Kon-geologiya vazirligi davlat xaridlarining yillik va choraklik reja-jadvallariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishi mumkin.

Bunda xarid qilish tartib-taomili o'tkazilishidan kamida uch ish kuni oldin davlat xaridlari reja-jadvallariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishiga yo'l qo'yiladi.

Kon-geologiya vazirligi 1-jadvalda keltirilgan hujjatlarni maxsus axborot portaliga joylashtiradi.

1-Jadval

№	Hujjatning nomi	Muddat	Ijrochi
1	Yillik reja-jadvali	Joriy yilning 25 martigacha	Davlat xaridlari bo'yicha bosh mutaxassisi
3	Choraklik reja-jadvallari	Joriy chorak oxirgi oyining 25 sanasigacha	
4	Tanlash o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon va tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlar	Takliflarni qabul qilish muddati tugaydigan sanadan kamida 5 ish kuni oldin	Davlat xaridlari bo'yicha bosh mutaxassisi
5	Tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon va tender bo'yicha xarid qilish hujjatlar	Takliflarni qabul qilish muddati tugaydigan sanadan kamida 12 ish kuni va ko'pi bilan 30 ish kuni oldin	Davlat xaridlari bo'yicha bosh mutaxassisi
6	Shartnoma natijalari: tanlov, tender, to'g'ridan-to'g'ri	Uch ish kuni ichida maxsus axborot portaliga joylashtirilishi shart	Davlat xaridlari bo'yicha bosh mutaxassisi

6. Davlat xaridlarining reja-jadvali quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak:

xarid predmeti;
xarid predmetining miqdori va narxi;
xarid o'tkaziladigan oy;
davlat buyurtmachisining nomi va manzili;
xarid predmetini moliyalashtirish manbalari va muddatlari;
tovarlarni yetkazib berish, ishlarni bajarish va xizmatlarni ko'rsatish joyi (manzili).

7. Kon-geologiya vazirligi bilan manfaatlar to'qnashuviga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ekt xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi (keyingi o'rinlarda — ishtirokchi) bo'lishi mumkin emas.

2-bob. Elektron davlat xaridlarini o'tkazishning umumiy shartlari

8. Elektron davlat xaridlarida ishtirok etish uchun:

Kon-geologiya vazirligi operatorning vositachilik yig'imini va tomonlarning zakalatini (bundan xarid komissiyasi tomonidan zakalat to'lash talabi belgilamagan hollar mustasno);

Kon-geologiya vazirligi operatorning vositachilik yig'imini HKKPdagi shaxsiy hisobvaraqlariga o'tkazadilar.

Kon-geologiya vazirligi elektron davlat xaridlarida ishtirok etish uchun zakalatni HKKPga o'tkazishi talab etilmaydi.

9. Kon-geologiya vazirligi elektron davlat xaridlaridagi ishtiroklarini elektron raqamli imzoldan (keyingi o'rinlarda — ERI) foydalangan holda amalga oshiradi. ERIdan foydalanib davlat xaridlarining elektron tizimi orqali tuzgan davlat xaridlari to'g'risidagi shartnomalari haqiqiy hisoblanadi.

10. Kon-geologiya vazirligi e'lon yoki oferta bo'yicha Moliya vazirligining davlat moliyasini boshqarish axborot tizimi (keyingi o'rinlarda — DMBAT) tomonidan band qo'yilgan summasining, shuningdek, ularning HKKPdagi hisobvaraqlarida operatorning vositachilik yig'imi summasining yetarli miqdori mavjud bo'lgan taqdirda, elektron davlat xaridlarida ishtirok etadilar.

11. Kon-geologiya vazirligi tomonidan shaxsiy kabinet orqali auktsion, tanlash va tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon joylashtirilib yoki elektron do'konda ishtirokchining ofertasi tanlanib, davlat xaridlarining elektron tizimi elektron davlat xaridlari yakunlariga ko'ra tuziladigan shartnomaviy majburiyatlarni bajarish uchun moliyalashtirish manbalarini inobatga olgan holda

kerakli summaga band qo'yish to'g'risidagi axborotni DMBATdan olgandan so'ng ushbu e'lonni yoki tanlangan oferta bo'yicha narxlar so'rovi mexanizmini faollashtiradi.

12. Elektron do'kon va auksion o'tkazishda Kon-geologiya vazirligi kiritgan zakalatlari shartnoma bo'yicha majburiyatlar to'liq bajarilgan yoki belgilangan tartibda bekor qilingunga qadar band qilib qo'yiladi.

13. Kon-geologiya vazirligi tomonidan tanlash yoki tender o'tkazishda ishtirokchilar tomonidan zakalat kiritish zarurati hamda kiritiladigan zakalat miqdori xarid komissiyasi tomonidan belgilanadi. Ishtirokchilarning zakalati operator tomonidan g'olib aniqlangunga qadar band qilib qo'yiladi.

Tanlash yoki tender g'olibining zakalati shartnoma tuzilguniga qadar band qilib qo'yiladi. Bunda g'olib shartnoma tuzishni rad etgan taqdirda, unga zakalat summasi qaytarib berilmaydi.

Tanlash yoki tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ijrochining kiritgan zakalati shartnoma bo'yicha majburiyatlar to'liq bajarilgan yoki belgilangan tartibda bekor qilingunga qadar band qilib qo'yiladi.

Zakalat miqdori tanlashni o'tkazishda tovar (ish, xizmat) qiymatining **1 – 3 foizi**, tender o'tkazishda esa **1 — 5 foizi** doirasida belgilanishiga yo'l qo'yiladi. Bunda xarid komissiyasi ishtirokchilarga nisbatan takliflarning garov yoki kafolat tarzida yoxud qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa usulda ta'minlanishi zarurligi to'g'risidagi talabni belgilashga haqli.

14. Operator tomonidan Kon-geologiya vazirligidan undiriladigan vositachilik yig'imi miqdori vakolatli organ tomonidan belgilanadi va barcha operatorlar uchun yagona hisoblanadi.

15. Davlat xaridlarining elektron tizimi avtomatik rejimda quyidagilarni amalga oshiradi:

Kon-geologiya vazirligi kiritilgan avans summasiga muvofiq har bir lot bo'yicha elektron davlat xaridlaridan foydalanish imkoniyatini yaratish;

elektron davlat xaridlarini o'tkazish;

ishtirokchilarni aniqlash va shartnomani shakllantirish;

elektron davlat xaridlari ishtirokchilarining takliflarini Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat soliq qo'mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, Adliya vazirligi ma'lumotlar bazalariga integratsiyalashuvi orqali baholash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar bilan Kon-geologiya vazirligi va xarid komissiyasini ta'minlaydi.

16. Elektron davlat xaridlarining yakuniga ko'ra davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan avtomatik ravishda namunaviy shakl asosida shartnoma shakllantiriladi va shartnoma tomonlarining shaxsiy kabinetlariga yuboriladi, shuningdek, tuzilgan shartnomalar elektron reestriga kiritish orqali ro'yxatdan o'tkaziladi.

17. Operator tuzilgan shartnomalar bo'yicha axborotni Iqtisodiyot va moliya vazirligi va operatorning ma'lumotlar bazalari elektron hamkorligi orqali Iqtisodiyot va moliya vazirligiga yuboradi.

18. Iqtisodiyot va moliya vazirligi shartnomalar tuzilganligi to'g'risidagi axborotni qabul qilgandan so'ng Kon-geologiya vazirligining shartnomalarini bir ish kuni mobaynida avtomatik tartibda DMBATda ro'yxatdan o'tkazadi yoki hisobga oladi, shuningdek, elektron do'kon yoki auksion orqali tuzilgan shartnoma summasini HKKPga o'tkazib beradi.

Kon-geologiya vazirligi tanlash yoki tender natijasida tuzilgan shartnoma bo'yicha to'lovlarni HKKPdagi shaxsiy hisobvaraqlaridan foydalanmagan holda amalga oshiradi. Bunda oldindan to'lov shartlari shartnomada nazarda tutiladi.

19. Agarda Kon-geologiya vazirligi elektron do'kon yoki auksion orqali tuzilgan shartnomada belgilangan muddatda to'lovni amalga oshirmasa, uning zakalati **bir ish kunida** ijrochining HKKPdagi tegishli hisobvarag'iga o'tkaziladi.

20. HKKP Kon-geologiya vazirligidan elektron do'kon yoki auksion orqali tuzilgan shartnoma bo'yicha tushgan to'lov summasini band qilib qo'yadi va mablag'lar tushgan kundan **keyingi ish kundan** kechiktirmasdan bu haqida ijrochiga xabarnoma yuboradi.

Mazkur xabarnoma ijrochiga tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib berish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

21. Kon-geologiya vazirligi elektron do'kon yoki auksion orqali tuzilgan shartnoma asosida tovarni (ishni, xizmatni) to'liq qabul qilganidan keyin **uch ish kuni** mobaynida bu to'g'risidagi axborotni o'zining shaxsiy kabinetidan foydalangan holda operatorga yuborishga majbur.

22. Operator tanlash yoki tender natijasida shartnoma tuzilganidan so'ng **bir ish kuni** davomida zakalatni banddan yechadi va uni ijrochining tegishli shaxsiy hisobvarag'iga qaytaradi.

Agar tanlash yoki tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida ijrochining kiritgan zakalati shartnoma bo'yicha majburiyatlar to'liq bajarilgan yoki belgilangan tartibda bekor qilingunga qadar band qilib qo'yilishini nazarda tutuvchi talab belgilangan bo'lsa, zakalat ushbu talablar bajarilgunga qadar banddan yechilmaydi.

23. Elektron do'kon yoki auksion orqali tuzilgan shartnoma bo'yicha yetkazib berish muddati tugagandan so'ng tovarlar (ishlarni, xizmatlar) yetkazib berilganligi haqidagi ma'lumot mavjud bo'lmasa, davlat xaridlarining elektron tizimi **bir ish kuni** mobaynida avtomatik rejimda Kon-geologiya vazirligi va Iqtisodiyot va moliya vazirligini xabardor qiladi.

24. Kon-geologiya vazirligi tomonidan elektron do'kon yoki auksion orqali tuzilgan shartnoma bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib berilganligi haqidagi ma'lumot taqdim qilinmaganda, HKKP ushbu shartnoma bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni yetkazib berish muddati tugagach **uch ish kundan** so'ng:

Kon-geologiya vazirligining shartnoma bo'yicha mablag'lariga sud yoki Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha komissiyaning tegishli qarori qabul qilinguniga yoki shartnoma bekor qilingunga qadar band qo'yadi;

25. HKKP sudning qonuniy kuchga kirgan qarori yoki Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha komissiya qarori asosida zakalatni banddan yechishni va (yoki) tegishli hisobvaraqqa o'tkazishni amalga oshiradi.

Bunda HKKP ijrochining zakalati Kon-geologiya vazirligiga o'tkazilishi to'g'risidagi sudning qonuniy kuchga kirgan qarori yoki Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha komissiya qarori asosida zakalatni budget buyurtmachisining budgetdan tashqari tegishli hisobvarag'iga o'tkazishni amalga oshiradi.

26. Operatorning vositachilik yig'imi davlat xaridlarining yakunlariga ko'ra bitimning haqiqiy summasidan kelib chiqib Kon-geologiya vazirligi va ishtirokchining avans to'lovlardan davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan ushlab qolinadi.

27. Ishtirokchilarning va Kon-geologiya vazirligining bandi bekor qilingan mablag'lari ularning topshiriqlariga asosan boshqa elektron davlat xaridlarida avans to'lovlari sifatida foydalanilishi mumkin yoki ularga xizmat ko'rsatadigan banklardagi hisobvaraqlariga qaytariladi.

28. Xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish turlari quyidagilardan iborat:

Elektron do'kon;

Boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion;

Tanlash;

Tender;

To'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha amalga oshiriladigan davlat xaridlari;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan ruxsat etilgan xaridlarning boshqa raqobatli turlari.

29. Xarid qilish tartibi elektron shaklda amalga oshirilishi mumkin. Xarid qilish tartib-qoidalarining turlari va majburiyatlari 2-jadvalda va xarid qilish jarayonining sxemasida keltirilgan:

2-Jadval

Sotib olish turi/usuli	Xarid o'tkaziladigan platforma va muddati	Xarid mezonlari
Elektron do'kon	xarid.uzex.uz; xt-xarid.uz; 48 soat	- Tovarlar uchun bir shartnoma bo'yicha 2 500 BHMgacha; - Ishlar, xizmatlar uchun bir shartnoma bo'yicha 50 BHMgacha; - Bir xil turdagi ishlar, xizmatlar bir moliya yil davomida 500 BHMgacha; - Bir xil turdagi tovarlar bir moliya yil davomida 10 000 BHMgacha.
Boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion	xarid.uzex.uz; xt-xarid.uz ; Kamida 5 ish kuni	- tovar standart xususiyatlarga ega bo'lishi kerak - tovarning texnik, ekspluatatsiya qilinish xususiyatlarini va boshqa xususiyatlarini baholash hamda taqqoslash kerak emas; - 6 000 BHMgacha bir shartnoma bo'yicha.
Tanlash	etender.uzex.uz; xt-xarid.uz; Kamida 5 ish kuni	- g'olibni aniqlash mezonlari tovar (ish, xizmat) davlat xaridining nafaqat pul ifodasiga, balki miqdoriy va sifat bahosiga ham ega bo'ladi; - 6 000 BHMgacha bir shartnoma bo'yicha.
Tender	etender.uzex.uz; xt-xarid.uz; 12 ish kunidan 30 ish kunigacha	- g'olibni aniqlash mezonlari tovar (ish, xizmat) davlat xaridining nafaqat pul ifodasiga, balki miqdoriy va sifat bahosiga ham ega bo'ladi; - 6 000 BHMdan ortiq.
Elektron kooperatsiya portali	new.cooperation.uz; 48 soat	- mahalliy ishlab chiqaruvchilardan xarid qilish;
To'g'ridan-to'g'ri shartnomalar		- Qonunning 71-moddasi - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 sentabrdagi PQ-3953-son qarori

Xarid qilish jarayonining sxemasi

Bosqichlar	Ijrochilar	Chora-tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Buyurtmachi	Davlat xaridlarining reja-jadvaliga muvofiq talabnomani rahbariyatga kiritish.	Yillik rejaga muvofiq *
2-bosqich	Raxbariyat	Talabnomani o'rganib chiqish (marketing) o'tkazish uchun haridar bo'limi hamda ishlarni boshqarish bo'limiga yo'naltirish.	Bir kun muddatda
3-bosqich	Haridar bo'limi bo'limi	Talabnomaga muvofiq o'rganib chiqib (marketing) raxbariyatga taklif kiritish.	Uch kun muddatda
4-bosqich	Raxbariyat	Takliflarga asosan tegishli haridlarni amalga oshirish yuzasidan tegishli ko'rsatmalar yo'naltirish.	Bir kun muddatda
5-bosqich	Haridar bo'limi bo'limi	Shartnoma tuzish.	Xarid o'tkaziladigan platforma va muddatiga ko'ra
6-bosqich	Gurux azolari	Yetkazib beruvchi tomonidan tovar moddiy boyliklarni qabul qilib olish.	Shartnoma shartlari asosida

* Davlat haridlari bo'yicha yillik reja-jadval markaziy apparatning tarkibiy bo'linmalari rahbarlari va vazirlikning tizim osti tashkilotlarning buyurtmalariga asosan har yili mart oyiga qadar shakllantiriladi va tasdiqlanadi.

3-bob. Elektron do'kon

1-§. Elektron do'kon vositasida davlat xaridlarini amalga oshirishning umumiy shartlari

30. Elektron do'kon vositasidagi davlat xaridlari ushbu nizomga 3-jadvalda keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

31. Elektron do'kon vositasidagi davlat xaridi 2-jadvalda belgilangan mezonlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Kon-geologiya vazirligining tomonidan elektron do'kon orqali tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) milliy klassifikatoriga muvofiq guruhlashtirilgan ayni bir turdagi tovarlarning davlat xaridi bir moliya yili davomida bazaviy hisoblash miqdorining **o'n ming baravarigacha** amalga oshirilishi mumkin.

Kon-geologiya vazirligining tomonidan elektron do'kon orqali tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) milliy klassifikatoriga muvofiq guruhlashtirilgan ayni bir turdagi ishlarning, xizmatlarning davlat xaridi bir moliya yili davomida bazaviy hisoblash miqdorining **beshtuz baravarigacha** amalga oshirilishi mumkin.

32. Ishirokchi elektron do'konda o'zi joylashtirgan axborotning ishonchliligi bo'yicha javobgar hisoblanadi.

2-§. Elektron do'kon orqali davlat xaridlarini amalga oshirish

33. Elektron do'kon orqali davlat xaridlari narxlar so'rovi mexanizmidan foydalangan holda nizomning 3-jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.

34. Narxlar so'rovi mexanizmi davlat buyurtmachisiga o'xshash tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) taklif etayotgan ishtirokchilardan pastroq narxni so'rash imkoniyatini taqdim etadigan davlat xaridlarining elektron tizimi funksiyasidan iborat.

35. Ijrochi va ishtirokchilar to'g'risidagi ma'lumot (ularning nomi, STIR, taklif summolari) g'olib aniqlangan paytda davlat xaridlarining elektron tizimida aks ettiriladi.

36. Kon-geologiya vazirligi elektron do'konning qo'shimcha sahifasidan foydalangan holda davlat xaridlarini hududlar (viloyatlar va Toshkent shahri) bo'yicha mahalliy ishlab chiqaruvchilar (ishni bajaruvchilar, xizmat ko'rsatuvchilar) o'rtasida amalga oshirishi mumkin.

Bunda elektron do'konning qo'shimcha sahifasidan foydalanish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

Kon-geologiya vazirligi elektron do'konda "milliy do'kon" yacheykasini tanlaydi;

davlat xaridlarining elektron tizimi Kon-geologiya vazirligi joylashgan hudud bo'yicha mahalliy ishlab chiqaruvchilarning (ishni bajaruvchilarning, xizmat ko'rsatuvchilarning) takliflari joylashtirilgan qo'shimcha sahifani ochadi.

"Milliy do'kon" yacheykasining "qidiruv" tugmasidan foydalanilganda davlat xaridlarining elektron tizimi Kon-geologiya vazirligi joylashgan hududdagi mahalliy ishlab chiqaruvchilar (ishni bajaruvchilar, xizmat ko'rsatuvchilar) tomonidan yetkazib beriladigan tovarni (ishni, xizmatni) qidiradi.

37. "Milliy do'kon" orqali xaridlarni amalga oshirishda davlat xaridlarining elektron tizimi narxlar so'rovi mexanizmini faqat Kon-geologiya vazirligi joylashgan hududdagi (viloyatlar va Toshkent shahri) mahalliy ishlab chiqaruvchilar (ishni bajaruvchilar, xizmat ko'rsatuvchilar) orasida yuborilishini ta'minlaydi.

38. Elektron do'kon vositasida davlat xaridlarini amalga oshirish 3-jadvalda keltirilgan:

3-Jadval

Bosqichlar	Sub'ektlar	Chora-tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Ishirokchi	Elektron do'konga o'z ofertasini o'n besh ish kuniga joylashtiradi.	Ixtiyoriy ravishda
2-bosqich	Kon-geologiya vazirligi	Elektron do'konda ishtirokchilarning ofetalarini o'rganish yo'li bilan o'zi uchun zarur bo'lgan tovarni (ishni, xizmatni) tanlaydi va narx so'rovi mexanizmidan foydalanadi.	Ixtiyoriy
3-bosqich	Davlat xaridlarining elektron tizimi	Tanlab olingan ofertani taklif qilgan ishtirokchiga, shuningdek, elektron do'konda o'xshash tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) taklif etayotgan barcha ishtirokchilarga narxlar so'rovi mexanizmini amalga oshirgan holda xarid qilish tartib-taomilida ishtirok etish to'g'risida takliflarni yuboradi.	Avtomatik ravishda
4-bosqich	Takliflarni olgan ishtirokchi	Narxlar so'rovida ishtirok etish to'g'risida taklif tushgandan so'ng o'z takliflarini berishi mumkin.	48 soat ichida
5-bosqich	Davlat xaridlarining elektron tizimi	1. Ishirokchilar tomonidan berilgan narx bo'yicha takliflarni taqqoslashni amalga oshiradi. 2. Kon-geologiya vazirligi tomonidan tanlangan ishtirokchining ofertasida bayon etilgan shartlarga muvofiq hamda ishtirokchilar tomonidan taklif etilgan eng past narxda shartnomani shakllantiradi. 3. Tuzilgan shartnoma to'g'risidagi ma'lumotlarni shartnomalarning yagona reestriga kiritadi. 4. Agar xarid qilish tartib-taomilining yakuniga ko'ra faqat tanlab olingan ofertani taklif qilgan ishtirokchigina ishtirok etgan bo'lsa, Kon-geologiya vazirligi va ishtirokchi o'rtasida elektron shaklda savdolanish imkonini yaratadi va savdolar yakuniga ko'ra shartnomani shakllantiradi yoki xarid qilish tartib-taomilini o'tkazilmagan deb topadi.	Avtomatik ravishda
6-bosqich	Kon-geologiya vazirligi	Tovarlar shartnomada ko'rsatilgan texnik parametrlarga muvofiq qabul qilinadi	Shartnomada ko'rsatilgan muddat davomida

4-bob. Aukcion

1-§. Aukcion vositasida davlat xaridlarini amalga oshirishning umumiy shartlari

39. Aukcion vositasidagi davlat xaridlari ushbu nizomga 4-jadvalda keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

40. Aukcion vositasidagi davlat xaridi 2-jadvalda belgilangan mezonlar bir vaqtning o'zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi.

2-§. Aukcion orqali davlat xaridlarini amalga oshirish

41. Aukcion orqali davlat xaridlarini amalga oshirish uchun Kon-geologiya vazirligi maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga davlat xaridlarining reja-jadvaliga muvofiq aukcion tugaydigan sanadan kamida besh ish kuni avval e'lonni joylashtiradi.

42. Aukcion o'tkazilishi to'g'risidagi e'londa quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak:

aukcionning birinchi va oxirgi kuni;
aukcion predmetining boshlang'ich narxi;
aukcion predmeti va uning xususiyati;
tovarning miqdori;
tovarlarni yetkazib berish muddatlari va shartlari;
tovarlar yetkazib beriladigan joy (manzil);

43. Aukcion Kon-geologiya vazirligining e'lonida bayon etilgan talablarni inobatga olgan holda o'tkaziladi.

44. Aukcion davlat xaridlarining elektron tizimida boshlang'ich narxni qadam-baqadam pasaytirish yo'li bilan o'tkaziladi. Qadam o'lchovi operator tomonidan vakolatli organ bilan kelishilgan holda belgilanadi, lekin aukcionning boshlang'ich narxining **3 foiz** miqdoridan ortiq bo'lishi mumkin emas.

Bunda bir ishtirokchi belgilangan qadam o'lchovi miqdorida boshlang'ich narxni ketma-ket bir necha bor pasaytirish huquqiga ega.

45. Davlat xaridlarining elektron tizimi Kon-geologiya vazirligining e'lonini joylashtirilgan vaqtdan va Iqtisodiyot va moliya vazirligining davlat moliyasini boshqarish axborot tizimidan ma'lumotlar almashuvi orqali mablag'lar mavjudligi haqidagi tasdig'i olingandan so'ng faollashtiradi va ishtirokchilarning takliflarini qabul qilishni boshlaydi.

46. Agar taklif narxi Kon-geologiya vazirligi tomonidan berilgan boshlang'ich narxdan past va/yoki boshqa ishtirokchining taklif qilgan narxidan past bo'lsa, davlat xaridlarining elektron tizimi ishtirokchilarning takliflarini qabul qilishni ta'minlaydi.

Aukcionni o'tkazish chog'ida ishtirokchilar aukcion boshlangan paytdan e'tiboran va u tamom bo'ladigan paytga qadar butun muddat ichida narx bo'yicha takliflarni cheklanmagan miqdorda berishga haqli.

Aukcion uni o'tkazish haqidagi e'londa ko'rsatilgan muddatda (sana va vaqt), biroq oxirgi taklif kelib tushgan vaqtdan so'ng **o'n daqiqadan kam bo'lmagan** vaqtda tugagan deb hisoblanadi.

Mazkur vaqt ichida yangi taklif berilgan taqdirda, ishtirokchilardan takliflarni qabul qilish muddati oxirgi taklif olingandan so'ng **yana o'n daqiqaga uzaytiriladi**.

Ishirokchilarning nomi va ular bilan bog'lanishga doir ma'lumotlar aukcion g'olibi aniqlanmaguniga qadar davlat xaridlarining elektron tizimida aks ettirilmaydi.

47. Aukcion orqali davlat xaridlarini amalga oshirishda tovarlarni yetkazib berish muddati ularning miqdoridan, hajmidan, noyobligidan, ishlab chiqarishga va (yoki) respublika hududiga import qilishga ketadigan vaqtdan va boshqa xususiyatlaridan kelib chiqqan holda **yetti kundan kam bo'lmashligi** kerak. Bunda yetkazib beruvchi tovarlarni shartnomada belgilangan muddatdan oldin yetkazib berishi mumkin.

48. Agar aukcionda bir nafar ishtirokchi ishtirok etgan bo'lsa yoki hech kim ishtirok etmagan bo'lsa, aukcion o'tkazilmagan deb hisoblanadi va g'olib aniqlanmaydi. Kon-geologiya vazirligi aukcionni **uch ish kuni**ga uzaytirishi yoki xaridni Qonun va mazkur nizom talablariga muvofiq elektron do'kon (belgilangan mezonlar doirasida) yoki eng yaxshi takliflarni tanlash orqali amalga oshirishi mumkin.

49. Boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan aukcion vositasida davlat xaridlarini amalga oshirish 4 jadvalda keltirilgan:

4-Jadval

Bosqichlar	Sub'ektlar	Chora-tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Kon-geologiya vazirligi	Davlat xaridlarining elektron tizimiga davlat xaridlarining reja-jadvaliga muvofiq e'lon joylashtiradi.	Ixtiyoriy ravishda
2-bosqich	Davlat xaridlarining elektron tizimi	E'lon joylashtirilgan vaqtdan e'tiboran aukcion bo'yicha ishtirokchilarning takliflarini qabul qilishni boshlaydi.	E'lon joylashtirilgan vaqtdan boshlab kamida besh ish kuni davomida
3-bosqich	Ishtirokchi	Aukcion davomida narx bo'yicha takliflarni cheklanmagan miqdorda berishi mumkin.	E'londa ko'rsatilgan muddat davomida
4-bosqich	Davlat xaridlarining elektron tizimi	1. Aukcion yakuniga ko'ra berilgan takliflar orasida eng past narxni taklif qilgan ishtirokchini aukcion g'olibi sifatida saralab oladi hamda u va Kon-geologiya vazirligi o'rtasidagi shartnomani shakllantiradi. 2. Tuzilgan shartnoma to'g'risidagi ma'lumotlarni Shartnomalarning yagona reestriga kiritadi. 3. Agar aukcionda bir nafar ishtirokchi ishtirok etgan bo'lsa yoki hech kim ishtirok etmagan bo'lsa, aukcionni o'tkazilmagan deb hisoblanadi.	Avtomatik ravishda
5-bosqich	Kon-geologiya vazirligi	Tovarlar shartnomada ko'rsatilgan texnik parametrlarga muvofiq qabul qilinadi	Shartnomada ko'rsatilgan muddat davomida (7 kundan kam bo'lmashligi kerak)
6-bosqich	Kon-geologiya vazirligi	Tovarlar shartnomada ko'rsatilgan texnik parametrlarga muvofiq qabul qilinadi	Shartnomada ko'rsatilgan muddat davomida

5-bob. Tanlash

1-§. Tanlash vositasida davlat xaridlarini amalga oshirish shartlari

50. Tanlash vositasidagi davlat xaridlari ushbu nizomga 5-jadvalda keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

Tanlash elektron shaklda o'tkaziladi.

51. Tanlash vositasidagi davlat xaridi 2 jadvalda belgilangan shartlar bir vaqtning o'zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi.

2-§. Tanlashni o'tkazishda xarid komissiyasi faoliyatini tartibga solish

52. Tanlashni o'tkazishda xarid komissiyasi **kamida besh nafar** a'zodan iborat bolish kerak.

Tanlashni o'tkazishda xarid komissiyasi a'zolarining **kamida uchdan ikki qismi** hozir bo'lishi lozim, har bir majlis va qabul qilingan qaror bayonnomalar bilan rasmiylashtirilishi kerak.

53. Xarid komissiyasining mas'ul kotibi:

ishtirokchilarning takliflarini tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarining rasmiylashtirish talablariga mos kelishi bo'yicha tekshirishni amalga oshiradi va tekshirish natijalarini xarid komissiyasiga ko'rib chiqish uchun taqdim qiladi;

tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan mezonlar bo'yicha ishtirokchilarning takliflarini baholash natijalarini davlat xaridlarining elektron tizimiga kiritadi.

54. Kon-geologiya vazirligi xarid komissiyasining har bir a'zosiga va mas'ul kotibiga o'z vazifalarini amalga oshirish uchun davlat xaridlarining elektron tizimida shaxsiy kabinet ochadi.

55. Xarid komissiyasining vakolatiga kiritilgan masalalarni ko'rib chiqish uchun xarid komissiyasining a'zolari va mas'ul kotibining muloqot qilish imkoniyati davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan **yopiq chat** orqali ta'minlanadi.

56. Davlat xaridlarining elektron tizimidagi shaxsiy kabinetga birinchi marotaba kirilayotganda xarid komissiyasining har bir a'zosi, shu jumladan, uning raisi ho'jalik yurituvchi sub'ektlar, shu jumladan, tadbirkorlik sub'ektlari bilan **affillanganlik** xususiyatiga ega aloqalari mavjudligi to'g'risida ma'lumotlarni kiritishi shart. Operator xarid komissiyasi a'zolari tomonidan kiritilgan ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash bo'yicha javobgar bo'ladi.

57. Xarid komissiyasi raisining affillanganlik xususiyatiga ega aloqalari mavjud bo'lsa, tanlashni o'tkazish jarayoni Kon-geologiya vazirligi tomonidan yangi xarid komissiyasi raisi tayinlanguniga qadar to'xtatiladi.

58. Xarid komissiyasining har bir a'zosi o'zining shaxsiy kabineti orqali ovoz berishda yoqlab ovoz berishi, qarshi ovoz berishi yoki unda ishtirok etishdan bosh tortishi mumkin. Belgilangan muddatlarda xarid komissiyasi a'zosi shaxsiy kabineti orqali ovoz berishdan bo'yn tovlagan taqdirda, u ovoz berishdan bosh tortgan deb tan olinadi. Xarid komissiyasi raisi yoki uning vazifasini bajaruvchi ovoz berishdan bosh tortishga haqli emas.

3-§. Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarini ishlab chiqish va tanlash o'tkazilishi to'g'risidagi e'lonni joylashtirish

59. Kon-geologiya vazirligi tomonidan tanlash o'tkazish to'g'risidagi qaror qabul qilinganidan so'ng Kon-geologiya vazirligining mutaxassisleri yoki tanlashni tashkil etish va o'tkazish uchun mas'ul shaxs tomonidan tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari, shartnoma va tanlashni o'tkazish haqidagi e'lonning matni ishlab chiqiladi.

60. Tanlash taklifining texnik va narx qismi bo'yicha Kon-geologiya vazirligining tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun taklifning har bir qismini baholash ahamiyatiga qarab nisbiy qiymati belgilanadi.

61. Kon-geologiya vazirligi ishtirokchilarning tanlash takliflarini baholash usulini (eng past narx usulini yoki ball usulini) va mezonlarini ishlab chiqadi va xarid komissiyasiga kelishish uchun kiritadi. Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida tanlash takliflarini baholash uchun qo'llaniladigan

ballarning boshlang'ich qiymatlari belgilanishi mumkin va ulardan o'tmagan ishtirokchi tanlashdan chetlatiladi.

62. Tanlash taklifining texnik qismi uchun miqdoriy yoki miqdoriy bo'lmagan (ekspert) ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda baholash mezonlari belgilanadi.

63. Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari namunaviy shakllarini to'ldirishda miqdoriy (o'leohov birligini belgilagan holda) va miqdoriy bo'lmagan (ekspert) mezonlar xarid komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

64. Ball usulidan foydalanganda tanlash taklifining har bir baholash mezonini bo'yicha nisbiy qiymat belgilanishi mumkin. Eng past narx usulidan foydalanganda ishtirokchining tanlash taklifi tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan talablarga mos kelishi yoki mos kelmasligini aniqlovchi mezonlar belgilanishi mumkin.

65. Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida majburiy bo'lgan mezonlar belgilanishi mumkin. Bunda tanlash taklifining majburiy etib belgilangan mezonlarga mos kelmasligi ishtirokchini davlat xaridlarining elektron tizimi orqali tanlashning har qanday bosqichida chetlatishga olib keladi.

Xarid qilish hujjatlariga tovarni ishlab chiqaruvchiga, ishtirokchiga nisbatan davlat xaridlarining asosiy prinsiplariga zid bo'lgan, oshirib yuborilgan talablarni, shu jumladan ishtirokchining malakasiga nisbatan oshirib yuborilgan talabni (shu jumladan tovarning, ishning yoki xizmatning sifatiga, texnik xususiyatlariga doir talablar, tovarning funksional xususiyatlariga (iste'mol qilish xususiyatlariga) doir talablar shaklida) kiritishga yo'l qo'yilmaydi.

66. Kon-geologiya vazirligi tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarini kelishish uchun elektron shaklda xarid komissiyasiga kiritadi.

67. Xarid komissiyasi tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarining majlisda yoki masofadan turib Qonun talablariga muvofiqligini ko'rib chiqadi va quyidagilarni belgilaydi:

tanlash takliflari qabul qilinadigan muddatlar;

tanlash takliflarini baholash usullari va mezonlari;

tanlash takliflari qismlarining va zarur hollarda texnik qismining har bir baholash mezonlarining nisbiy qiymati;

tanlash taklifini ta'minlash hajmi va shakli.

68. Tanlashni o'tkazish haqida qaror tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari xarid komissiyasi tomonidan kelishilganidan so'ng qabul qilinadi.

69. Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida kamchiliklar aniqlangan taqdirda, aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilganidan so'ng xarid komissiyasi tomonidan tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari qayta kelishilishi kerak.

70. Kon-geologiya vazirligi xarid komissiyasi bilan kelishilgan tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarini **ERI** bilan tasdiqlaydi.

71. Tasdiqlangan tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari, shartnoma loyihasi, shuningdek, tanlash o'tkazish haqidagi e'lon tanlash ishtirokchilarining takliflarini qabul qilish muddati tugashidan **kamida besh ish kuni oldin** Kon-geologiya vazirligi tomonidan davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtiriladi.

72. Zarur bo'lgan hollarda Kon-geologiya vazirligi xarid komissiyasi qarori bilan tanlash takliflarini berish muddatini uzaytirishi yoki tanlash ishtirokchilariga tanlash takliflarining amal qilish muddatini ma'lum vaqtga uzaytirish taklifi bilan murojaat qilishi mumkin.

4-§. Tanlash natijalarini sarhisob qilish

73. Tanlash xarid komissiyasi tomonidan belgilangan muddatda o'tkazilganda davlat xaridlarining elektron tizimi avtomatik ravishda ishtirokchilar tomonidan joylashtirilgan va ularning tanlash takliflarini tashkil etuvchi elektron hujjatlarni ko'rish imkoniyatini beradi.

74. Ishtirokchi tomonidan birlashtirilgan fayllar uning tanlash taklifida ko'rsatilgan ma'lumotlariga mos bo'lishi hamda davlat xaridlarining elektron tizimidagi to'ldirilishi majburiy bo'lgan elektron maydonlar to'ldirilishi kerak.

75. Davlat xaridlarining elektron tizimi ishtirokchi taklif etgan narxni boshlang'ich narxga muvofiqligini va elektron maydonlarning to'ldirilganligini hamda birlashtirilgan fayllarning mavjudligini tekshiradi. Ishtirokchi tomonidan taklif etilgan narx boshlang'ich narxdan yuqori bo'lsa, shuningdek, to'ldirilishi majburiy bo'lgan maydonlar to'ldirilmagan bo'lsa yoki birlashtirilishi majburiy bo'lgan fayllar mavjud bo'lmasa, davlat xaridlarining elektron tizimi rad etish sababini ko'rsatgan holda ishtirokchining taklifini rad etadi. Birlashtirilgan fayllardagi ma'lumotlarning ishtirokchining tanlash taklifida ko'rsatilgan ma'lumotlarga muvofiqligini tekshirish xarid komissiyasining mas'ul kotibi tomonidan amalga oshiriladi.

76. Agar tanlash taklifi Qonunning va tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari talablariga muvofiq bo'lsa, u tegishli tarzda rasmiylashtirilgan deb topiladi. Tanlash taklifi tegishli tarzda rasmiylashtirilganligi yoki rasmiylashtirilmaganligi bo'yicha xarid komissiyasi mas'ul kotibining qarori uning asoslangan sabablari bilan xarid komissiyasi tomonidan tasdiqlanishi lozim.

Ishtirokchining tanlash taklifi talablarga mos kelmaganligi to'g'risidagi qaror, ushbu qaror qabul qilingan kunda ishtirokchining shaxsiy kabinetiga yuboriladi.

Tanlash g'olibini aniqlash uchun tanlash takliflarini baholash tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan mezonlar va usul asosida amalga oshiriladi.

77. Tanlash takliflarini baholash vaqtida xarid komissiyasining mas'ul kotibi tanlash ishtirokchilaridan ularning tanlash takliflari yuzasidan tushuntirishlar so'rashga haqli. Mazkur jarayon **elektron shaklda** o'tkaziladi.

78. Tanlash taklifi tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari bilan belgilangan muddat mobaynida kuchda qoladi.

79. Tanlash taklifining miqdoriy ko'rsatkichlarini, shu jumladan, narx qismini baholash davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan avtomatik ravishda amalga oshiriladi.

80. Miqdor ko'rsatkichlariga ega bo'lmagan taklifning texnik qismining mezonlari bo'yicha ishtirokchilarning takliflarini baholash va taqqoslash xarid komissiyasi tomonidan ovoz berish orqali amalga oshiriladi.

81. Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan shartlardan kelib chiqib davlat xaridlarining elektron tizimi avtomatik ravishda:

tanlash taklifining texnik va narx qismlarini baholashni hisobga olgan holda eng yuqori ball to'plagan ishtirokchini (ball usulidan foydalanganda);

tanlash takliflarining texnik qismini baholash natijalariga ko'ra tanlashda ishtirok etishni davom ettirishga ruxsat berilgan ishtirokchilar orasidan eng past narxni taklif etgan ishtirokchini (eng past narx usulidan foydalanganda) g'olib sifatida aniqlaydi.

Tanlash takliflarini ball usulidan foydalangan holda baholash natijasiga ko'ra ikki yoki undan ortiq ishtirokchilar bir xil ball to'plagan bo'lsa, eng past narx taklif etgan ishtirokchi g'olib deb topiladi.

Tanlash takliflarini eng past narx usulidan foydalangan holda baholash natijasiga ko'ra ikki yoki undan ortiq ishtirokchilar bir xil ball to'plagan bo'lsa, texnik qismi bo'yicha eng maqbul taklifni bergan ishtirokchi g'olib deb topiladi.

Zaxiradagi g'olibni aniqlash mazkur bandda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

82. Tanlash takliflarini ko'rib chiqish hamda baholash natijalari davlat xaridlarining elektron tizimida avtomatik ravishda shakllangan dastlabki elektron bayonnomada qayd etiladi va tanlash o'tkazish bo'yicha xarid komissiyasi a'zolari tomonidan ERIdan foydalangan holda imzolaniadi.

Bunda dastlabki elektron bayonnomada quyidagi axborot bo'lishi kerak:

tanlash takliflari ko'rib chiqiladigan hamda baholanadigan sana va vaqt;

xarid komissiyasi a'zolarining va tanlash ishtirokchilari vakolatli vakillarining tarkibi;

tanlash takliflari ko'rib chiqilgan tanlash ishtirokchilari;

xarid bir tanlash taklifini baholash natijalarining yoyilmasi;

tanlash takliflari ularni rad etishning aniq sabablari ko'rsatilgan va asoslangan holda rad etilgan tanlash ishtirokchilari;

tanlash g'olibini to'g'risida qabul qilingan qaror haqida ma'lumot;

tanlash g'olibining nomi (yuridik shaxslar uchun), F.I.O. (jismoniy shaxslar uchun), joylashgan joyi (pochta manzili).

83. Dastlabki elektron bayonnomada rasmiylashtirilgan kunda davlat xaridlarining elektron tizimida muhokama qilish uchun **ikki ish kuni**ga joylashtiriladi.

84. Tanlashning istalgan ishtirokchisi dastlabki elektron bayonnomada e'lon qilinganidan so'ng Kon-geologiya vazirligiga tanlash o'tkazish natijalari bo'yicha davlat xaridlarining elektron tizimi orqali e'tirozlar yuborishga haqli.

85. Agar **ikki ish kuni ichida** tanlash ishtirokchilari tomonidan tanlash o'tkazish natijalari bo'yicha e'tirozlar tushmagan bo'lsa, bu to'g'risida xarid komissiyasining tegishli majlisi elektron bayonnomasi rasmiylashtiriladi va Kon-geologiya vazirligi bilan g'olib deb topilgan ishtirokchi o'rtasida shartnoma tuziladi.

86. Tanlash o'tkazish natijalari bo'yicha tanlash ishtirokchilaridan e'tirozlar tushganda, xarid komissiyasi e'tirozlarni **ikki ish kuni ichida** ko'rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi.

87. Kon-geologiya vazirligi tomonidan xarid komissiyasiga taqdim etilgan muhokama natijalari to'g'risidagi axborot asosida xarid komissiyasining tegishli majlisi elektron bayonnomasi rasmiylashtiriladi va imzolangan kundan boshlab **uch ish kuni ichida** davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtiriladi.

6-§. Tanlash natijalari bo'yicha shartnoma tuzish

88. Tanlash natijalariga doir shartnoma tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida va o'zi bilan shartnoma tuzilayotgan tanlash ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan taklifda nazarda tutilgan shartlar asosida g'olib aniqlangan vaqtdan boshlab **o'n ish kunidan** kechiktirmasdan tuziladi.

89. Tanlashni o'tkazish natijalariga ko'ra shartnoma elektron shaklda tuziladi hamda shartnomalarning yagona reestriga kiritiladi.

90. Kon-geologiya vazirligi tomonidan xodimlarni fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnoma asosida jalb etishni nazarda tutuvchi xarid qilish tartib-taomillarini elektron shaklda o'tkazish majburiy hisoblanmaydi.

Bunda xarid komissiyasi faoliyatini tartibga solish, tanlash ishtirokchilari tomonidan takliflarni berish, tanlash ishtirokchilarning takliflarini ko'rib chiqish va baholash, g'olib va zaxira g'olibni aniqlash, tanlash natijalarini rasmiylashtirish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

91. Eng yaxshi takliflarni tanlash vositasida davlat xaridlarini amalga oshirish 5-jadvalda keltirilgan:

5-Jadval

Bosqichlar	Sub'ektlar	Chora-tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Kon-geologiya vazirligi	1. Toq sonli va kamida besh nafar a'zodan iborat tarkibda xarid komissiyasini tuzadi. 2. Xarid komissiyasining har bir a'zosiga va mas'ul kotibiga davlat	Zaruratga ko'ra

		xaridlarining elektron tizimida shaxsiy kabinet ochadi. 3. Tanlash o'tkazish haqidagi e'lon, tanlash bo'yicha xarid qilish hujjati loyihasi matnini ishlab chiqadi va xarid komissiyasiga kelishish uchun elektron shaklda kiritadi.	
2-bosqich	Xarid komissiyasi	Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarini qonunchilikka muvofiqi yuzasidan ko'rib chiqadi va kelishadi.	Zaruratga ko'ra
3-bosqich	Kon-geologiya vazirligi	Xarid komissiyasi bilan kelishilgan tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarini ERI bilan tasdiqlaydi.	Zaruratga ko'ra
4-bosqich	Kon-geologiya vazirligi	Tasdiqlangan tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari, shuningdek, tanlash o'tkazish haqidagi e'lonni davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtiradi.	E'londa ko'rsatilgan muddatdan kechiktirmay
5-bosqich	Ishtirokchi	Tanlash bo'yicha elektron taklifni o'zining shaxsiy kabineti orqali taqdim etadi.	E'londa ko'rsatilgan muddatdan kechiktirmay
6-bosqich	Davlat xaridlarining elektron tizimi	1. Tanlash taklifi ishtirokchilar, xarid komissiyasi mas'ul kotibi va a'zolari va boshqa shaxslar tomonidan ko'rilishiga yo'l qo'ymaydi, bundan ushbu taklifni taqdim etgan ishtirokchi mustasno. 2. Ishtirokchi taklif etayotgan narxning boshlang'ich narxga muvofiqiqligini va elektron maydonlarning to'ldirilganligini hamda birlashtirilgan fayllarning mavjudligini tekshiradi. 3. Ishtirokchi tomonidan taklif etilayotgan narx boshlang'ich narxdan yuqori bo'lsa, shuningdek, to'ldirilishi majburiy bo'lgan maydonlar to'ldirilmagan bo'lsa yoki birlashtirilishi majburiy bo'lgan fayllar mavjud bo'lmasa, rad etish sababini ko'rsatgan holda ishtirokchining taklifini rad etadi.	Tanlash takliflarini ochish muddati yetib kelgunga qadar
7-bosqich	Davlat xaridlarining elektron tizimi	Ishtirokchilar tomonidan joylashtirilgan va ularning tanlash takliflarini tashkil etuvchi elektron hujjatlarni xarid komissiyasi mas'ul kotibi va a'zolariga ko'rish imkoniyatini beradi.	Takliflarni qabul qilish muddati tugagandan so'ng darhol
8-bosqich	Xarid komissiyasining mas'ul kotibi	1. Birlashtirilgan fayllardagi ma'lumotlarning ishtirokchining tanlash taklifida ko'rsatilgan ma'lumotlarga muvofiqiqligini tekshiradi. 2. Tanlash taklifi tegishli tarzda rasmiylashtirilganligi yoki rasmiylashtirilmaganligi bo'yicha qarorni	Takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran o'n ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda

		uning asoslangan sabablari bilan tasdiqlash uchun xarid komissiyasiga kiritadi.	
9-bosqich	Davlat xaridlarining elektron tizimi	Ishtirokchining tanlash taklifi talablarga mos kelmaganligi to'g'risidagi qarorni ishtirokchining shaxsiy kabinetiga yuboradi.	Qaror qabul qilingan kunda
10-bosqich	Davlat xaridlarining elektron tizimi	Tanlash taklifining miqdoriy ko'rsatkichlarini, shu jumladan, narx qismini baholaydi.	Takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran o'n ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda
11-bosqich	Xarid komissiyasi	Miqdor ko'rsatkichlariga ega bo'lmagan taklifning texnik qismining mezonlari (ekspert mezonlari) bo'yicha ishtirokchilarning takliflarini ovoz berish orqali taqqoslashni amalga oshiradi va baholaydi.	Takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran o'n ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda
12-bosqich	Davlat xaridlarining elektron tizimi	1. Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan shartlardan kelib chiqib: tanlash taklifining texnik va narx qismlarini baholashni hisobga olgan holda eng yuqori ball to'plagan ishtirokchini (ball usulidan foydalanganda); tanlash takliflarining texnik qismini baholash natijalariga ko'ra tanlashda ishtirok etishni davom ettirishga ruxsat berilgan ishtirokchilar orasidan eng past narxni taklif etgan ishtirokchini (eng past narx usulidan foydalanganda) g'olib sifatida aniqlaydi. 2. Ikki yoki undan ortiq ishtirokchilar bir xil ball to'plagan bo'lsa (ball usulidan foydalanganda) yoki bir xil narx taklif qilgan bo'lsa (eng past narx usulidan foydalanganda), tanlash taklifini barchadan oldin joylashtirgan ishtirokchini g'olib deb topadi. 3. Tanlash takliflarini ko'rib chiqish hamda baholash natijalarini avtomatik ravishda shakllanadigan dastlabki elektron bayonnomada qayd etadi.	Takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran o'n ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda
13-bosqich	Xarid komissiyasi a'zolari	Dastlabki elektron bayonnomani ERI dan foydalangan holda imzolaydi	Takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran o'n ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda

14-bosqich	Davlat xaridlarining elektron tizimi	Dastlabki elektron bayonnomani muhokama uchun joylashtiradi.	Dastlabki bayonnomasi rasmiylashtirilgan kundan e'tiboran ikki ish kunida
15-bosqich	Xarid komissiyasi	1. Agar ikki ish kuni ichida tanlash ishtirokchilari tomonidan tanlash o'tkazish natijalari bo'yicha e'tirozlar tushmagan bo'lsa, bu to'g'risida tegishli elektron bayonnomani rasmiylashtiradi. 2. Tanlash o'tkazish natijalari bo'yicha tanlash ishtirokchilaridan e'tirozlar tushganda ushbu e'tirozlarni ko'rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi.	Takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran o'n ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda
16-bosqich	Kon-geologiya vazirligi	G'olib deb topilgan ishtirokchi bilan elektron shaklda shartnoma tuzadi.	G'olib aniqlangan vaqtdan boshlab o'n ish kunida
17-bosqich	Davlat xaridlarining elektron tizimi	Tuzilgan shartnoma to'g'risidagi ma'lumotlarni Shartnomalarning yagona reestriga joylashtiradi.	Avtomatik ravishda
18-bosqich	Kon-geologiya vazirligi	Tovarlar shartnomada ko'rsatilgan texnik parametrlarga muvofiq qabul qilinadi	Shartnomada ko'rsatilgan muddat davomida

6-bob. Tender

1-§. Tenderni o'tkazish shartlari

92. Tender vositasidagi davlat xaridlari ushbu nizomga 5-jadvalda keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

Tender elektron shaklda o'tkaziladi.

93. Tender vositasidagi davlat xaridi 2-jadvalda belgilangan shartlar bir vaqtning o'zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi.

2-§. Tenderni o'tkazishda xarid komissiyasi faoliyatini tartibga solish

94. Tenderni o'tkazishda xarid komissiyasi **kamida yetti nafar** a'zodan iborat bolish kerak.

Agar majlisda xarid komissiyasi a'zolari umumiy sonining **kamida uchdan ikki qismi** hozir bo'lsa, xarid komissiyasi vakolatli hisoblanadi. Barcha qabul qilingan qarorlar bayonnomalar bilan rasmiylashtirilishi kerak.

95. Xarid komissiyasining mas'ul kotibi:

ishtirokchilarning takliflarini tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarini rasmiylashtirish talablariga mos kelishi bo'yicha tekshirishni amalga oshiradi va tekshirish natijalarini xarid komissiyasiga ko'rib chiqish uchun taqdim qiladi;

tasdiqlangan mezonlar bo'yicha ishtirokchilarning takliflarini baholash natijalarini davlat xaridlarining elektron tizimida joylashtiradi.

96. Kon-geologiya vazirligi xarid komissiyasining har bir a'zoriga va mas'ul kotibiga o'z vazifalarini amalga oshirish uchun davlat xaridlarining elektron tizimida shaxsiy kabinet ochadi.

97. Xarid komissiyasining vakolatiga kiritilgan masalalarni ko'rib chiqish uchun xarid komissiyasining a'zolari va mas'ul kotibining muloqot qilish imkoniyati davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan **yopiq chat** orqali ta'minlanadi.

98. Davlat xaridlarining elektron tizimidagi shaxsiy kabinetga birinchi marotaba kirilayotganda xarid komissiyasining har bir a'zosi, shu jumladan, uning raisi ho'jalik yurituvchi sub'ektlar, shu jumladan, tadbirkorlik sub'ektlari bilan **affilanganlik** xususiyatiga ega aloqalar mavjudligi to'g'risida ma'lumotlarni kiritishi shart. Operator xarid komissiyasi a'zolari tomonidan kiritilgan ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash bo'yicha javob beradi.

99. Xarid komissiyasi raisining affilanganlik xususiyatiga ega aloqalari mavjud bo'lsa, tenderni o'tkazish jarayoni Kon-geologiya vazirligi tomonidan xarid komissiyasining vaqtinchalik yangi raisi tayinlanungina qadar to'xtatiladi.

100. Xarid komissiyasining har bir a'zosi o'zining shaxsiy kabineti orqali ovoz berishda yoqlab ovoz berishi, qarshi ovoz berishi yoki unda ishtirok etishdan bosh tortishi mumkin. Belgilangan muddatlarda xarid komissiya a'zosi shaxsiy kabineti orqali ovoz berishdan bosh tortgan taqdirda, uning ovozi betaraf sifatida qabul qilinadi. Xarid komissiya raisi yoki uning vazifasini bajaruvchi ovoz berishdan bosh tortishga haqli emas.

3-§. Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarini ishlab chiqish va tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'lonni joylashtirish

101. Kon-geologiya vazirligi tomonidan tender o'tkazish to'g'risidagi qaror qabul qilinganidan so'ng Kon-geologiya vazirligi mutaxassislari yoki tenderni tashkil etish va o'tkazish uchun mas'ul shaxs tomonidan tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarini, shartnoma va tender o'tkazish haqidagi e'lonning matni ishlab chiqiladi.

102. Tender taklifining texnik va narx qismi bo'yicha Kon-geologiya vazirligining tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun taklifning har bir qismini baholash ahamiyatiga qarab nisbiy qiymati belgilanadi.

103. Kon-geologiya vazirligi ishtirokchilarning tender takliflarini baholash usulini (eng past narx usulini yoki ball usulini) va mezonlarini ishlab chiqadi va xarid komissiyasiga kelishish uchun kiritadi. Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida tender takliflarini baholash uchun qo'llaniladigan ballarning boshlang'ich qiymatlarini belgilanishi mumkin va ulardan o'tmagan ishtirokchi tenderdan chetlatiladi.

104. Tender taklifining texnik qismi uchun miqdoriy yoki miqdoriy bo'lmagan (ekspert) ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda baholash mezonlari belgilanadi.

105. Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarining namunaviy shakllarini to'ldirishda miqdoriy (o'lov birligini belgilagan holda) va miqdoriy bo'lmagan (ekspert) mezonlar xarid komissiyasi bilan kelishilgan holda Kon-geologiya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

106. Ball usulidan foydalanganda tender taklifining har bir baholash mezonini bo'yicha nisbiy qiymat belgilanishi mumkin. Eng past narx usulidan foydalanganda ishtirokchining taklifi tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan talablarga mos kelishi yoki mos kelmasligini aniqlovchi mezonlar belgilanishi mumkin.

107. Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida majburiy bo'lgan mezonlar belgilanishi mumkin. Bunda tender taklifining majburiyligi belgilangan mezonlarga mos kelmasligi ishtirokchining davlat xaridlarining elektron tizimi orqali tenderning har qanday bosqichida chetlatilishiga olib keladi.

Xarid qilish hujjatlariga tovarni ishlab chiqaruvchiga, ishtirokchiga nisbatan davlat xaridlarining asosiy prinsiplariga zid bo'lgan, oshirib yuborilgan talablarni, shu jumladan ishtirokchining malakasiga nisbatan oshirib yuborilgan talabni (shu jumladan tovarning, ishning yoki xizmatning sifatiga, texnik xususiyatlariga doir talablar, tovarning funksional xususiyatlariga (iste'mol qilish xususiyatlariga) doir talablar shaklida) kiritishga yo'l qo'yilmaydi.

108. Kon-geologiya vazirligi tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarini kelishish uchun **elektron shaklda** xarid komissiyasiga kiritadi.

109. Xarid komissiyasi o'zining majlisida yoki masofadan turib tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari loyahasining Qonun talablariga muvofiqligi bo'yicha ko'rib chiqadi va quyidagilarni belgilaydi:

tender takliflari qabul qilinadigan muddatlar;

tender takliflarini baholash usullari va mezonlari;

tender taklifi qismlarining va zarur hollarda texnik qismining har bir baholash mezon bo'yicha nisbiy qiymati;

tender taklifini ta'minlash hajmi va shakli.

110. Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari loyihasi unda belgilangan talablar bilan birga muhokamaga qo'yiladi.

111. Xarid komissiyasi tomonidan tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari loyihasi ma'qullangan holda tender o'tkazish haqida qaror qabul qilinadi.

112. Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari ma'qullanmagan hollarda ular qayta ishlash uchun qaytarib yuborilishi yoki xarid komissiyasi majlisida qayta ishlanishi mumkin.

113. Ma'qullangan tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarini Kon-geologiya vazirligi **ERI** bilan tasdiqlaydi.

114. Tasdiqlangan tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari, shuningdek, tender o'tkazish to'g'risidagi e'lon tender ishtirokchilaridan tender takliflarini qabul qilish muddati tugaydigan sanadan **kamida o'n ikki ish kuni oldin va ko'pi bilan o'ttiz ish kuni oldin** davlat xaridlarining elektron tizimiga Kon-geologiya vazirligi tomonidan joylashtiriladi.

115. Zarur bo'lgan hollarda Kon-geologiya vazirligi xarid komissiyasi qarori bilan tender takliflarini berish muddatini uzaytirishi yoki tender ishtirokchilariga tender takliflarining amal qilish muddatini ma'lum vaqtga uzaytirish taklifi bilan murojaat qilishi mumkin.

116. Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida Kon-geologiya vazirligi har bir tovar (ish, xizmat) xarid qilish tartib-taomilining alohida birligi (lot) sifatida ko'rib chiqilishini e'lon qilishi mumkin. Bu holatda Kon-geologiya vazirligi turli tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib berish uchun tenderning bir nechta ishtirokchisi bilan shartnomalar tuzishi mumkin, bunda **har bir lot uchun faqat bitta g'olib** aniqlanishi mumkin.

5-§. Tender natijalarini sarhisob qilish

117. Tender xarid komissiyasi tomonidan belgilangan muddatda o'tkazilganda davlat xaridlarining elektron tizimi avtomatik ravishda ishtirokchilar tomonidan joylashtirilgan va ularning tender takliflarini tashkil etuvchi elektron hujjatlarni ko'rish imkoniyatini beradi.

118. Ishtirokchi tomonidan biriktirilgan hujjatlar uning tender taklifida ko'rsatilgan ma'lumotlariga mos bo'lishi hamda davlat xaridlarining elektron tizimidagi to'ldirilishi majburiy bo'lgan elektron maydonlar to'ldirilgan bo'lishi kerak.

119. Davlat xaridlarining elektron tizimi ishtirokchi taklif etgan narxning boshlang'ich narxga muvofiqligini va elektron maydonlarning to'ldirilganligini hamda biriktirilgan hujjatlarining mavjudligini tekshiradi. Ishtirokchi tomonidan taklif etilgan narx boshlang'ich narxdan yuqori bo'lsa, shuningdek, to'ldirilishi majburiy bo'lgan to'ldirilmagan maydonlar mavjud bo'lsa yoki biriktirilishi majburiy bo'lgan hujjatlar mavjud bo'lmasa, davlat xaridlarining elektron tizimi aniq sababni ko'rsatgan holda ishtirokchining tender taklifini rad etadi. Biriktirilgan hujjatlardagi ma'lumotlarning ishtirokchining tender taklifida ko'rsatilgan ma'lumotlarga muvofiqligini tekshirish xarid komissiyasining mas'ul kotibi tomonidan amalga oshiriladi.

120. Tender takliflarini baholash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

tender taklifining tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida ko'rsatilgan talablarga mos ravishda rasmiylashtirilganligini tekshirish;

ishtirokchining malaka talablarga (tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida nazarda tutilgan bo'lsa) muvofiqligini baholash;

tender taklifining texnik qismini baholash;

tender taklifining narx qismini baholash.

Bunda davlat xaridlarining elektron tizimi tender taklifining malaka, texnik va narx qismlarida mavjud bo'lgan ma'lumotlar tender taklifining oldingi qismi baholanishi yakunlangandan so'ng ketma-ketlik bilan oshkor qilinishini ta'minlaydi.

121. Tender taklifi tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarining talablariga muvofiqligi yoki nomuvofiqligi bo'yicha xarid komissiyasi mas'ul kotibining qarori uning asoslangan sabablari bilan xarid komissiyasi tomonidan tasdiqlanishi lozim.

122. Ishtirokchining tender taklifi talablarga mos kelmaganligi to'g'risidagi qaror ushbu qaror qabul qilingan kunda ishtirokchining shaxsiy kabinetiga yuboriladi.

123. Tender g'olibini aniqlash uchun tender takliflarini baholash tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan mezonlar va usul asosida amalga oshiriladi.

124. Tender takliflarini baholash vaqtida xarid komissiyasi mas'ul kotibi tender ishtirokchilaridan ularning tender takliflari yuzasidan tushuntirishlar so'rashga haqli. Mazkur jarayon elektron shaklda o'tkaziladi.

125. Tender taklifining miqdoriy ko'rsatkichlarini, shu jumladan, narx qismini baholash davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan **avtomatik ravishda** amalga oshiriladi.

126. Miqdor ko'rsatkichlariga ega bo'lmagan taklifning texnik qismining mezonlari bo'yicha ishtirokchilarning takliflarini baholash va taqqoslash xarid komissiyasi tomonidan ovoz berish orqali amalga oshiriladi.

127. Miqdor ko'rsatkichlariga asoslangan mezonlarni baholashda:

tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida ko'rsatkichlarning eng kam va eng ko'p qiymatlari belgilanishi mumkin:

miqdor ko'rsatkichlari eng kam va eng ko'p hisobga olinadigan qiymatlari oralig'ida bo'lgan ishtirokchilar uchun ball koeffitsienti uning miqdor ko'rsatkichining eng kam va eng ko'p hisobga olinadigan qiymatlarining farqiga bo'lgan nisbatini aniqlash orqali hisoblanadi;

agar ma'lum bir mezon bo'yicha ishtirokchining miqdor ko'rsatkichi tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan shartlarga muvofiq eng kam hisobga olinadigan qiymatdan kam bo'lsa, ishtirokchiga eng kam ball qo'yiladi;

agar ma'lum bir mezon bo'yicha ishtirokchining miqdor ko'rsatkichi eng ko'p hisobga olinadigan qiymatdan yuqori bo'lsa, uning ko'rsatkichi eng ko'p hisobga olinadigan qiymatdan qay darajada yuqoriligidan qat'i nazar unga ushbu mezon bo'yicha eng yuqori ball beriladi;

miqdoriy yoki miqdoriy bo'lmagan (ekspert) mezonni baholash davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan ballni ushbu mezonning hisobga olinadigan qiymatiga ko'paytirish orqali **avtomatik ravishda** amalga oshiriladi.

128. Xarid qilinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib xarid komissiyasi ishtirokchilarga shartnomani bajarish uchun zarur professional va texnik malaka ma'lumotlariga, kasbiy va texnik kompetensiyaga, moliyaviy resurslarga, jihozlarga va boshqa moddiy imkoniyatlarga, boshqaruv malakasiga, ishonchlikka, tajribaga va obro'ga, shuningdek, inson resurslariga ega ekanligiga ishonch hosil qilish uchun qo'shimcha mezon va talablarni belgilash huquqiga ega.

Bunda ishtirokchilarni kamsitishga, savdolarning bitta yoki bir nechta ishtirokchisiga savdolarida qatnashish uchun imtiyozli shart-sharoitlar yaratib berishga, raqobatni cheklashga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan mezonlarni, talablarni va tartib-taomillarni qo'llashga yo'l qo'yilmaydi.

129. Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida tender ishtirokchisining malaka talablariga mos kelishini tasdiqlovchi hujjatlarning davlat xaridlarining elektron tizimiga birlashtirilishi nazarda tutilishi mumkin. Kon-geologiya vazirligi tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida nazarda tutilmagan mezonlar bo'yicha ishtirokchining malakasini baholashga yoki tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida nazarda tutilmagan hujjatlar taqdim etilishini talab qilishga haqli emas.

130. Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan shartlardan kelib chiqib davlat xaridlarining elektron tizimi **avtomatik ravishda:**

tender taklifining texnik va narx qismlarini baholashni hisobga olgan holda eng yuqori ball to'plagan ishtirokchini (ball usulidan foydalanganda);

tender takliflarining texnik qismini baholash natijalariga ko'ra tenderda ishtirok etishni davom ettirishga ruxsat berilgan ishtirokchilar orasidan eng past narxni taklif etgan ishtirokchini (eng past narx usulidan foydalanganda) g'olib sifatida aniqlaydi.

Tender takliflarini ball usulidan foydalangan holda baholash natijasiga ko'ra ikki yoki undan ortiq ishtirokchilar bir xil ball to'plagan bo'lsa, eng past narx taklif etgan ishtirokchi g'olib deb topiladi.

Tender takliflarini eng past narx usulidan foydalangan holda baholash natijasiga ko'ra ikki yoki undan ortiq ishtirokchilar bir xil ball to'plagan bo'lsa, texnik qismi bo'yicha eng maqbul taklifni bergan ishtirokchi g'olib deb topiladi.

Zaxiradagi g'olibni aniqlash mazkur badda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

131. Xarid komissiyasi a'zolari davlat xaridlarining elektron tizimida avtomatik ravishda shakllangan yig'ilishning elektron bayonnomalarini ERIdan foydalangan holda tasdiqlaydi. Elektron bayonnomadan ko'chirma davlat xaridlarining elektron tizimida avtomatik ravishda e'lon qilinadi.

132. Tender takliflarini ko'rib chiqish va baholash bayonnomasida:

tender takliflari ko'rib chiqiladigan hamda baholanadigan sana va vaqt to'g'risidagi;

hozir bo'lgan xarid komissiyasi a'zolarining va tender ishtirokchilari vakolatli vakillarining tarkibi haqidagi;

tender takliflari ko'rib chiqilgan tender ishtirokchilari to'g'risidagi;

xar bir tender takliflarini baholash natijalarining yoyilmasi haqidagi;

tender takliflari ularni rad etishning aniq sabablari ko'rsatilgan va asoslangan holda rad etilgan tender ishtirokchilari haqidagi;

tender g'olibi (zaxira g'olibi) to'g'risida qabul qilingan qaror haqidagi;

tender g'olibining nomi (yuridik shaxs uchun), familiyasi, ismi, otasining ismi (jismaniy shaxs uchun), joylashgan joyi (pochta manzili) haqidagi axborot bo'lishi kerak.

133. Kon-geologiya vazirligi g'olib bo'lgan taklif akseptiga qadar istalgan vaqtda tenderni bekor qilish huquqiga ega. Tender bekor qilingan taqdirda Kon-geologiya vazirligi davlat xaridlarining elektron tizimida mazkur qarorning asoslangan sabablarini e'lon qiladi.

134. Kon-geologiya vazirligi tender bekor qilinganligi uchun javobgar bo'lmaydi, bundan tender Kon-geologiya vazirligining g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) oqibatida bekor qilingan hollar mustasno.

6-§. Tender natijalari bo'yicha shartnoma tuzish

135. Tender natijalari bo'yicha shartnoma tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida va shartnoma tuzilayotgan tender ishtirokchisi tomonidan berilgan taklifda ko'rsatilgan shartlar asosida g'olib aniqlangan vaqtdan boshlab **o'n ish kunidan kechiktirmasdan** tuziladi.

136. Kon-geologiya vazirligi tender shartlariga muvofiq qabul qilgan ta'minot summasi yoki ta'minotiga oid boshqa hujjatlar quyidagi holatlardan biri ro'y bergan taqdirda, ishtirokchiga yoki ijrochiga darhol qaytarilishini ta'minlaydi:

taklifni ta'minotiga oid hujjatning amal qilish muddati tugagan bo'lsa;

shartnomaning kuchga kirishi va ushbu shartnomaning bajarilishi ta'minlanishi, agar bunday ta'minlash davlat xaridi shartlarida talab etilsa;

davlat xaridlari bekor qilinsa;

takliflarni yuborishning oxirgi muddati tugaguniga qadar taklifning chaqirib olinishi, agar davlat xaridi shartlarida bunday qaytarib olishga yo'l qo'yilmasligi aytib o'tilmagan bo'lsa.

137. Tender ishtirokchilari tender shartlari va tenderni o'tkazish tartib-taomillari buzilgan holatlarda tender natijalaridan belgilangan tartibda shikoyat qilishlari mumkin.

138. Xarid komissiyasi davlat xaridlarining boshqa sub'ektlari tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

139. Xarid komissiyasining o'z vakolati doirasida qabul qiladigan qarorlari barcha ishtirokchilar uchun majburiy hisoblanadi.

140. Tender natijalari bo'yicha tuzilgan shartnoma elektron hujjat shaklida tuziladi va operator tomonidan Shartnomalarning yagona reestriga kiritiladi.

141. Kon-geologiya vazirligi tomonidan xodimlarni fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnoma asosida jalb etishni nazarda tutuvchi xarid qilish tartib-taomillarini elektron shaklda o'tkazish majburiy hisoblanmaydi.

Bunda xarid komissiyasi faoliyatini tartibga solish, tender ishtirokchilari tomonidan takliflarni berish, tender ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqish va baholash, g'olib va zaxira g'olibni aniqlash, tender natijalarini rasmiylashtirish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

142. Tender vositasida davlat xaridlarini amalga oshirish 6 jadvalda keltirilgan:

6-Jadval

Bosqichlar	Sub'ektlar	Chora-tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Kon-geologiya vazirligi	1. Toq sonli va kamida yetti nafar a'zodan iborat tarkibda xarid komissiyasini tuzadi. 2. Xarid komissiyasining har bir a'zosiga va mas'ul kotibiga davlat xaridlarining elektron tizimida shaxsiy kabinet ochadi. 3. Tender o'tkazish haqidagi e'lonning, tender bo'yicha xarid qilish hujjatining va shartnoma loyihasining matnini ishlab chiqadi va xarid komissiyasiga kelishish uchun elektron shaklda kiritadi.	Zaruratga ko'ra
2-bosqich	Xarid komissiyasi	Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarini qonunchilikka muvofiqligi yuzasidan ko'rib chiqadi va kelishadi.	Zaruratga ko'ra
3-bosqich	Kon-geologiya vazirligi	Xarid komissiyasi bilan kelishilgan tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarini ERI bilan tasdiqlaydi.	Zaruratga ko'ra
4-bosqich	Kon-geologiya vazirligi	Tasdiqlangan tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari, shuningdek, tender	Takliflarni qabul qilish muddati

		o'tkazish haqidagi e'lonni davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtiradi.	tugagandan so'ng darhol
5-bosqich	Ishtirokchi	Tender taklifini elektron taklif ko'rinishida o'zining shaxsiy kabineti orqali taqdim etadi.	E'londa ko'rsatilgan muddatdan kechiktirmay
6-bosqich	Davlat xaridlarining elektron tizimi	1. Tender taklifi ishtirokchilar, xarid komissiyasi mas'ul kotibi va a'zolari va boshqa shaxslar tomonidan ko'rilishiga yo'l qo'ymaydi, bundan ushbu taklifni taqdim etgan ishtirokchi mustasno. 2. Ishtirokchi taklif etayotgan narxning boshlang'ich narxga muvofiqligini va elektron maydonlarning to'ldirilganligini hamda birlashtirilgan fayllarning mavjudligini tekshiradi. 3. Ishtirokchi tomonidan taklif etilayotgan narx boshlang'ich narxdan yuqori bo'lsa, shuningdek, to'ldirilishi majburiy bo'lgan maydonlar to'ldirilmagan bo'lsa yoki birlashtirilishi majburiy bo'lgan fayllar mavjud bo'lmasa, rad etish sababini ko'rsatgan holda ishtirokchining taklifini rad etadi.	Tender takliflarini ochish muddati yetib kelgunga qadar
7-bosqich	Davlat xaridlarining elektron tizimi	1. Ishtirokchilar tomonidan joylashtirilgan va ularning tender takliflarini tashkil etuvchi elektron hujjatlarni xarid komissiyasi mas'ul kotibi va a'zolariga ko'rish imkoniyatini beradi. 2. Tender taklifining malaka, texnik va narx qismlarida mavjud bo'lgan ma'lumotlar tender taklifining oldingi qismi baholanishi yakunlangandan so'ng ketma-ketlik bilan oshkor qilinishini ta'minlaydi.	Takliflarni qabul qilish muddati tugagandan so'ng darhol
8-bosqich	Xarid komissiyasining mas'ul kotibi	1. Birlashtirilgan fayllardagi ma'lumotlarning ishtirokchining tender taklifida ko'rsatilgan ma'lumotlarga muvofiqligini tekshiradi. 2. Tender taklifi tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarining talablariga muvofiqligi yoki nomuvofiqligi bo'yicha qarorni uning asoslangan sabablari bilan tasdiqlash uchun xarid komissiyasiga kiritadi.	Takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran qirq besh ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda
9-bosqich	Davlat xaridlarining elektron tizimi	Tender taklifining miqdoriy ko'rsatkichlarini, shu jumladan, narx qismini baholaydi.	Takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran qirq besh ish kunidan ko'p

			bo'lmagan muddatda
10-bosqich	Xarid komissiyasi	Miqdor ko'rsatkichlariga ega bo'lmagan taklifning texnik qismining mezonlari (ekspert mezonlari) bo'yicha ishtirokchilarning takliflarini ovoz berish orqali taqqoslashni amalga oshiradi va baholaydi.	Takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran qirq besh ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda
11-bosqich	Davlat xaridlarining elektron tizimi	1. Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan shartlardan kelib chiqib: tender taklifining texnik va narx qismlarini baholashni hisobga olgan holda eng yuqori ball to'plagan ishtirokchini (ball usulidan foydalanganda); tender takliflarining texnik qismini baholash natijalariga ko'ra tenderda ishtirok etishni davom ettirishga ruxsat berilgan ishtirokchilar orasidan eng past narxni taklif etgan ishtirokchini (eng past narx usulidan foydalanganda) g'olib sifatida aniqlaydi. 2. Ikki yoki undan ortiq ishtirokchilar bir xil ball to'plagan bo'lsa (ball usulidan foydalanganda) yoki bir xil narx taklif qilgan bo'lsa (eng past narx usulidan foydalanganda), tender taklifini barchadan oldin joylashtirgan ishtirokchini g'olib deb hisoblaydi. 3. Tender takliflarini ko'rib chiqish hamda baholash natijalarini avtomatik ravishda shakllanadigan elektron bayonnomada qayd etadi.	Takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran qirq besh ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda
12-bosqich	Xarid komissiyasi a'zolari	Elektron bayonnomani ERIdan foydalangan holda imzolaydi.	Takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran qirq besh ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda
13-bosqich	Kon-geologiya vazirligi	G'olib deb topilgan ishtirokchi bilan elektron shaklda shartnoma tuzadi.	G'olib aniqlangan vaqtdan boshlab o'n ish kunida
14-bosqich	Davlat xaridlarining elektron tizimi	Tuzilgan shartnoma to'g'risidagi ma'lumotlarni Shartnomalarning yagona reestriga joylashtiradi.	Avtomatik ravishda
18-bosqich	Kon-geologiya vazirligi	Tovarlar shartnomada ko'rsatilgan texnik parametrlarga muvofiq qabul qilinadi	Shartnomada ko'rsatilgan muddat davomida

7-bob. To'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha amalga oshiriladigan davlat xaridlari

1-§. To'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha xaridlarini amalga oshirish tartibi

143. To'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha davlat xaridlari Qonunning 71-moddasi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 27.09.2018 yildagi PQ-3953-sonda belgilangan hollarda amalga oshirilishi mumkin.

144. Kon-geologiya vazirligi to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzilganligi to'g'risidagi axborotni shartnoma tuzilgan paytdan e'tiboran **uch ish kuni ichida** maxsus axborot portaliga joylashtirishi shart, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

145. To'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzilganligi to'g'risidagi axborot maxsus axborot portaliga joylashtirilmagan bo'lsa, ushbu shartnomalar bo'yicha to'lovlar amalga oshirilmaydi, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

146. Kon-geologiya vazirligi ushbu paragrafda nazarda tutilgan davlat xaridlarini amalga oshirish chog'ida xarid qilish tartib-taomillarining boshqa raqobatli turlaridan ham Qonun va ushbu Nizom talablariga muvofiq foydalanishi mumkin.

147. Agar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlarida, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining qarorlarida tovarning (ishning, xizmatning) davlat xaridini to'g'ridan-to'g'ri shartnoma asosida amalga oshirishga ruxsat berilsa, tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining **olti ming baravari miqdorigacha** bo'lgan shartnoma va shartnomaga oid qo'shimcha kelishuvlar Kompleks ekspertiza qilish markazida kompleks ekspertizadan o'tkazilmaydi.

2-§. Yagona yetkazib beruvchilar bilan shartnoma tuzish

148. Yagona yetkazib beruvchilardan xaridni amalga oshirish uchun Kon-geologiya vazirligi yagona yetkazib beruvchilar reestridan (keyingi o'rinlarda — Reestr) foydalanadi.

149. Yagona yetkazib beruvchidan tovar (ish, xizmat) olish zarur bo'lgan taqdirda, yetkazib beruvchi hamda Kon-geologiya vazirligi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuziladi va bu shartnoma to'g'risidagi axborot u tuzilgan paytdan e'tiboran **uch ish kuni ichida** maxsus axborot portaliga joylashtirilishi lozim.

3-§. Yagona yetkazib beruvchilar reestri

150. Yagona yetkazib beruvchilar reestri vakolatli organ tomonidan maxsus axborot portalida yuritiladigan axborot resursidir.

151. Yagona yetkazib beruvchilar reestri yagona yetkazib beruvchidan davlat xaridini amalga oshirish uchun ruxsat etilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxati va yagona yetkazib beruvchilar ro'yxatidan iboratdir.

152. Reestrda kontragent mavjud bo'lmasa, Kon-geologiya vazirligi to'g'ridan-to'g'ri shartnomani tuzishga haqli emas.

153. Reestrda hamma erkin foydalanishi mumkin.

8-bob. Yakunlovchi qoidalar

154. Davlat xaridlarini rasmiylashtirish, tuzilgan shartnomalar bo'yicha hisob-kitob qilish, shartnomaviy majburiyatlar bajarilishini monitoring qilish, shikoyatlarni, nizo va kelishmovchiliklarni ko'rib chiqish hamda xarid qilish tartib-taomillarining davlat nazorati qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

155. Xarid qilish tartib-taomili natijasi bo'yicha tuzilgan shartnomaning quyidagi muhim shartlarini:

- tovarni (ishni, xizmatni) o'zgartirishga;
- tovarning (ishning, xizmatning) sifatini va assortimentini o'zgartirishga;
- tovarning miqdorini va bahosini oshirishga;
- yetkazib berish muddatini uzaytirishga (bundan fors-major holatlar mustasno);

amalga oshirilishi lozim bo'lgan qo'shimcha ishlar va xizmatlar qiymatini shartnoma bo'yicha uning umumiy boshlang'ich summasining **10 foizidan** ko'p bo'lgan summaga oshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Qonunchilik hujjatlariga muvofiq to'g'ridan-to'g'ri tuzilgan shartnomalarning muhim shartlarini o'zgartirish bo'yicha ushbu shartnoma shartlariga muvofiq qo'shimcha kelishuv tuzilishi mumkin.

156. Kon-geologiya vazirligi va davlat xaridlarining elektron tizimi operatori tomonidan xarid qilish tartib-taomiliga oid barcha hujjatlar belgilangan muddatlarda saqlanishi lozim.

157. Kon-geologiya vazirligi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi, shartnomalar qonunchilik hujjatlariga muvofiq tuzilishi va shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlar lozim darajada bajarilishi uchun, shuningdek, maxsus axborot portaliga joylashtirilgan ma'lumotlarning, vakolatli davlat organlariga taqdim etilgan hujjatlarning haqqoniyligiga va hujjatlarning qog'oz va elektron shaklining o'zaro muvofiqligiga javob beradi.

158. Xaridlar jaaryonida Ichki nazorat bo'limi Kon-geologiya vazirligining 2023 yil 12 aprel kuni 27-son buyruq bilan tasdiqlangan "Tuzilayotgan shartnomalarni kelishish, imzolash va ijro etish Siyosati" va "Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligida kontragentlarni tekshirishga oid "Yo'riqnomada ko'rsatilgan vazifalarni amalga oshiradi.

159. Vazirlik Buxgalteriya hisobi bo'limi va xaridlar bo'limi har chorak yakunida amalga oshirilgan xaridlar to'g'risidagi ma'lumotlar tahlilini o'tkazish uchun ularni Ichki nazorat bo'limiga taqdim etib boradi.

160. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2025 yil "03" 01 dagi 1 - son buyrug'iga 6-ilova

Davlat xaridlari ochiq va shaffof amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi xarid komissiyasi to'g'risidagi NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur nizom Davlat xaridlari ochiq va shaffof amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi xarid komissiyasining (keyingi o'rinlarda — komissiya) asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari, javobgarligi va faoliyatining tashkiliy asoslarini belgilaydi.

2. Komissiya o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, Oliy Majlis palatalari qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon, qaror va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlariga, boshqa qonunchilik hujjatlariga, Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi buyruqlariga ushbu nizomga hamda amal qiladi.

3. Komissiyaning o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari Tog' - kon sanoati va geologiya vazirligi tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

4. Davlat xaridlarini yanada ochiq va shaffofligini oshirish uchun xarid jarayoni ikkita xarid komissiyasi yordamida amalga oshiriladi:

Ishchi guruhlar – takliflarning texnik qismini ko'rib chikish va texnik xulosalarni rasmiylashtirish uchun tegishli yo'nalishlar bo'yicha tuziladi. Tegishli yo'nalishlar bo'yicha ishchi guruhlar a'zolari tarkibi va soni xarid qilish tartib-taomilining turiga bog'liq bo'ladi va olinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) xususiyatlari inobatga olingan holda o'zgartirilishi mumkin hamda sohaga oid ekspertlarni tizimosti tashkilotlaridan jalb qilish huquqiga ega.

Xarid komissiyasi – xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflarini buyurtmaga muvofiqlik darajasi bo'yicha xolis baholashdan va tartibga solishdan hamda davlat xaridlari raqobatlashuv usullari orqali amalga oshirilganda g'olibni (g'oliblarni) tanlash iborat. Shu bilan birga davlat xaridlariga oid murojaatlarni ko'rib chiqishda ishtirok etadi.

5. Xarid komissiyasining har bir a'zosiga va mas'ul kotibiga davlat xaridlarining elektron tizimida shaxsiy kabinet ochiladi.

6. Xarid komissiyasi a'zolari xolis bo'lishi va xarid qilish tartib-taomili g'olibini tanlashdan shaxsan manfaatdor bo'lmasligi kerak.

7. Xarid komissiyasining ishiga rais rahbarlik qiladi, u xarid komissiyasi majlislarini chaqiradi va olib boradi, ovozga qo'yishni va xarid komissiyasi tomonidan qabul qilingan qarorlarni e'lon qiladi, shuningdek xarid komissiyasi majlislarining bayonnomalarini imzolaydi. Xarid komissiyasi raisi yo'qligida uning vazifalarini o'rinbosari bajaradi.

8. Xarid komissiyasining tezkor faoliyatini uning ovoz berish huquqiga ega bo'lmagan mas'ul kotibi tashkil etadi. Komissiyaning mas'ul kotibi vazifasi bayonnomalar bilan belgilanadi va amalga oshiriladi.

9. Xarid komissiyasi eng yaxshi takliflarni tanlashni va tenderni elektron shaklda o'tkazish chog'ida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda masofadan turib ovoz berishi mumkin.

10. Xarid komissiyasi qarori xarid komissiyasi a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lib qolgan taqdirda xarid komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi ovoz bo'ladi.

11. Xarid komissiyasi a'zolarida xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari bilan affillanganlik xususiyatiga ega aloqalar mavjud bo'lgan taqdirda, xarid komissiyasining bunday a'zosi bu masala ko'rib chiqilgan majlisda o'zini o'zi rad etishi va mazkur masala bo'yicha ovoz berishda ishtirok etmasligi kerak, bu haqda xarid komissiyasi majlisining bayonnomasida qayd etiladi.

12. Agar xarid komissiyasiga mazkur komissiya a'zosining affillanganligi mavjudligi tegishli masala yuzasidan qaror qabul qilinguniga qadar ma'lum bo'lib qolgan bo'lsa, uning o'zi esa o'zini o'zi rad etmagan bo'lsa, bunday a'zoning mazkur masala bo'yicha ovoz berishiga yo'l qo'yilmaydi.

13. Agar xarid komissiyasiga tegishli masala bo'yicha ovoz bergan mazkur komissiya a'zosining affillanganligi mavjudligi qaror qabul qilinganidan keyin ma'lum bo'lib qolgan bo'lsa, bunday a'zoning ovozi mazkur masala bo'yicha ovoz berish natijalaridan chiqarib tashlanadi.

2-bob. Komissiyaning huquq va vazifalari

14. Xaridlarining ochiq va shaffof o'tkazilishini, buyurtmachilar tomonidan qonunchilik hujjatlarini talablariga rioya etilishi ustidan tizimli nazoratni amalga oshiradi;

15. Xarid qilish hujjatlarini kelishadi va elektron raqamli imzo (keyingi o'rinlarda – ERI) bilan tasdiqlaydi;

Takliflar qabul qilish muddatlarini belgilaydi;

Takliflarni baholash mezonlarini va usullarini belgilaydi;

Zarur bo'lganda taklif kiritish tartibini, hajmini va uni ta'minlash shaklini belgilaydi;

Dastlabki malaka tanlovini o'tkazadi (agar xarid qilish hujjatlarini shartlarida bu nazarda tutilgan bo'lsa);

Zarur bo'lganda dastlabki malaka tanlovi natijalarini hisobga olgan holda qaror qabul qiladi;

Xarid qilish tartib-taomillarini davlat xaridlariga oid Qonunchilikka muvofiq amalga oshiradi;

16. Xarid qilish tartib-taomillarining raqobatlashuv turlari g'olibini va zarur bo'lganda xaziradagi g'olibni belgilaydi yoki savdoni amalga oshmagan deb topadi.

3-bob. Yakunlovchi qoida

17. Xarid komissiyasi davlat xaridlari ijrochisini aniqlash tartib-taomillarining davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligi, o'zi qabul qilayotgan qarorlarning asosiligi va beg'arazligi uchun javobgar bo'ladi.

18. Xarid komissiyasi davlat xaridlarining boshqa sub'ektlari tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

19. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javob beradilar.

20. Qonunlar va boshqa normativ-xuquqiy hujjatlarining buzilishida aybdor bo'lgan xarid komissiyasi a'zolari O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladi.